

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filialida doimiy ravishda 1-juftlik darslari

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziriing 2019 yil 25 oktyabrdagi 994-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filialida doimiy ravishda 1-juftlik darslari O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini ijro etish bilan boshlanib kelinmoqda. Har haftaning juma kuni talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida davlat madhiyasi birgalikda jo'r bo'lib ijro etilmoxda. Joriy yilning 28 fevral kuni ham ushbu an'anani davom ettirgan holda soat 8:00 da filial foyesida talabalar tomonidan davlat madhiyasi birgalikda jo'r bo'lib ijro etildi. Muntazam tashkil etilayotgan ushbu tadbirda filialimiz direktori Z.Muqimov, direktor o'rinnbosarlari Sh.Ubaydullaev, H.Ravshanov, barcha bo'lim boshliqlari, professor o'qituvchilar va 283 nafar filial talabalari ishtirok etishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati